



ALISHER NAVOIY "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA ASTRONOMIYAGA OID TERMINLARNING BERILISHI

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU o'qituvchisi, PhD
umidaubaydullayeva49@gmail.com

Annotatsiya: So'z mulking sultoni Alisher Navoiy qalamiga mansub "Xamsa"ning uchinchi dostoni bo'lmish «Layli va Majnun» dostoni 3623 baytdan iborat bo'lib, Navoiy mazkur doston matnida o'z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarga oid terminlarini qo'llagan. Xususan, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, hayvonot va o'simlik dunyosiga oid terminlar, ilmi nujum (astronomiya)ga oid, tibbiy, musiqiy, ma'dan nomlarini anglatuvchi, ilm-fanga oid, diniy tushuncha (teonim)larga oid, tikuvchilik va boshqa shu kabi sohalarga doir bir qancha terminlar asarda mahorat bilan qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu maqolada asarda qo'llanilgan astronomiya ilmiga doir terminlar atroflicha o'rganilib, tahlilga tortildi. Maqolada tahlilga tortilgan terminlar bilan tanishish Navoiy asarlarini o'rganishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda ma'lum darajada yordam beradi. Qolaversa, terminologiya sohasi tarixi va taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Layli va Majnun", termin, terminologiya, astronomiya, osmon jismlari, yulduz, osmon, burjlar.

ПЕРЕДАЧА ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С АСТРОНОМИЕЙ, В ПОСЛАНИЕ АЛИШЕРА НАВОИ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

Убайдуллаева Умида Абдушукуровна

Преподаватель, PhD. СамГУ имени Шарофа Рашидова
umidaubaydullayeva49@gmail.com

Аннотация: Эпос "Лейли и Меджнун", третий эпос "Хамса", написанный Алишером Навои, состоит из 3623 стихов, в тексте этого эпоса Навои использовал термины, относящиеся к различным наукам и профессиям своего времени. В частности, термины, относящиеся к социально-политическому, военному, хозяйственному, животному и растительному миру, относящиеся к науке астрологии (астрономии), означающие медицинские, музыкальные, минеральные названия, относящиеся к науке, относящиеся к религиозным понятиям (теонимы), мы видим, что в работе умело используются некоторые термины, связанные с пошивом одежды и другими подобными областями.

В данной статье были тщательно изучены и проанализированы используемые в работе термины, относящиеся к науке астрономии. Знакомство



с анализируемыми в статье терминами в определенной степени помогает в преодолении трудностей при изучении творчества Навои. Кроме того, он служит важным источником по истории и развитию терминологии.

Ключевые слова: Алишер Навои, Лейли и Меджнун, термин, терминология, астрономия, небесные тела, звезда, небо, созвездия.

THE TRANSMISSION OF TERMS RELATED TO ASTRONOMY IN ALISHER NAVAI'S EPISTLE "LAYLI AND MAJNUN"

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi

Teacher(PhD) of SamSU named after Sharof Rashidov
umidaubaydullayeva49@gmail.com

Annotation: *The epic "Layli and Majnun" which is the third epic of "Khamsa" written by Alisher Navoi, the sultan of the word, consists of 3623 verses, in the text of this epic, Navoi used terms related to various sciences and professions of his time. In particular, terms related to the socio-political, military, economic, animal and plant world, related to the science of astrology (astronomy), meaning medical, musical, mineral names, related to science, related to religious concepts (theonyms), we can see that several terms related to tailoring and other such fields are skillfully used in the work.*

In this article, the terms related to the science of astronomy used in the work were thoroughly studied and analyzed. Acquaintance with the terms analyzed in the article helps to a certain extent in overcoming difficulties in studying Navoi's works. In addition, it serves as an important source for the history and development of the field of terminology.

Key words: *Alisher Navoi, Layli and Majnun, term, terminology, astronomy, celestial bodies, star, sky, constellations.*

Navoiy asarlarida o'z davrining turli ilm-fan, kasb-hunarlariga oid ko'plab terminlarni mahorat bilan qo'llagan. Xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy "Xamsa"ning uchinchi dostoni "Layli va Majnun" dostonida ijodkor ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, hayvonot va o'simlik dunyosiga oid terminlar, ilmi nujum (astronomiya)ga oid, tibbiy, musiqiy, ma'dan nomlarini anglatuvchi, ilm-fanga oid, diniy tushuncha (teonim)larga oid, tikuvchilik va boshqa shu kabi sohalarga doir bir qancha terminlarni qo'llaganini ko'rishimiz mumkin. Doston 1484-yilda yozilgan bo'lib, 38 bob, 3623 baytdan iborat. Doston bir necha an'anaviy boblar bilan boshlanadi. Sharq mumtoz adabiyoti o'zining aniq an'anasiga ega bo'lib, unga binoan doston hamd, munojot, na't kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Navoiyning "Layli va Majnun" dostonining I bobi ham xuddi shu an'anaga asoslangan holda Xudo madhi, ya'ni hamdga bag'ishlangandir. Unda shoir davrning buyuk so'z ustasi va faylasuf olimi sifatida olamning yaratilishi, tun, kun, oy, quyosh, yulduzlarning, yil fasllari va ulardagi



tabiatning o'ziga xos jilolari, insonning tabiat ichida yaratilishi, yo'qdan bor, bordan yo'q bo'lishi va boshqa juda ko'plab misollar orqali Xudoning beqiyos qudratining ifodasi ekanini ta'kidlab, Unga hamd-u sanolar aytadi. Mazkur bobda Navoiy ilmi nujum, ya'ni astronomiyaga oid bir qancha terminlarni qo'llaydi. Ulardan biri bu – anjum terminidir:

Aflokka sen shitob berding,

Anjum'a bu nur-u tob berding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:6]

Yana bir baytda:

Ko'k atlas-u borin zarhal etgan,

Anjum duridin mukallal etgan. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1-jildida anjum so'ziga "yulduzlar" [1983:98] deb ta'rif berilgan. Anjum terminidan hozir foydalanilmaydi. Bu so'zning ma'nosi o'zbek tilining izohli lug'atida ham keltirilmagan. Navoiy ijodida qo'llanilgan terminlarning ba'zilar bugungi kunda butunlay iste'moldan chiqib ketgan – tarixiy so'zlar bo'lsa, yana ba'zilar o'rnini boshqa so'zga bo'shatib bergan – arxaik so'zlardir. Demak, anjum so'zi ham hozirgi kunda arxaik so'zga aylangan.

Dostonda hozirgi Quyosh so'zi o'rnida mehr, Xurshid so'zlari qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin:

Qish mehrini chun itikrak etting,

Qorning sadafin arusak etting. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:6]

Ya'ni, qish quyoshini qilichday o'tkir qilding, sadafday oppoq qordan qo'g'irchoqlar yasading, deydi Navoiy. Yana bir baytda:

Gohiki, kasofat etti mahtob,

Mehr oltunin aylading siyahtob. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Ya'ni, gohida oy tutildi, gohida oltin quyosh (oftob) qoraydi, deyiladi.

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2-jildida mehr so'zining quyidagi ma'nolari keltirilgan: Mehr I – 1. Ishq, muhabbat;

2. Jamol;

3. Yorug'lik, porloqlik.

Mehr II – quyosh [1983:301]

Yana bir bayt:

Bog'ing ikki vardi – mehr ila moh,

Ne bog'-u ne vard, Alloh-Alloh!

Mehr so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan:

Mehr I – 1. Sevgi, muhabbat, moyillik;

2. Shafqat, rahmdillik.

Mehr II – quyosh, oftob. Jahonning mehri ikkidur: biri sensan, biri – oftob. (E.Vohidov, Muhabbat) [Madvaliyev A.:588]

Demak, mehr so'zining quyosh, oftob ma'nolarida ishlatilishi hozir ham badiiy adabiyotda uchrab turadi. Shuningdek, asarda Quyosh ma'nosida Xurshid so'zi ham qo'llanilgan:



Jaybi aro tugma Tiyr-u Nohid,

Egnida tirozi Oy-u Xurshid. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3-jildida Xurshid (fors. quyosh) so'zining Quyosh ma'nosini anglatishi berilgan. [1983:435] O'zbek tilining izohli lug'atida ham xurshid so'zining ma'nosi "yoritib turuvchi narsa; quyosh, yorug'lik, mash'al" deb berilgan. Bu so'zdan hozirda ham badiiy adabiyotda foydalaniladi:

Olamning xurshidi kundir, odamning xurshidi – ilm. (Hamza)

Tepalikka ilk nurin sochdi xurshidi jahon. (E.Vohidov)

Dostonda osmon jismlaridan tarqaladigan yorug'likka nisbatan bugungi kundagidek nur termini qo'llanilgan:

Aflokka sen shitob berding,

Anjung'a bu nur-u tob berding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:6]

Nur so'zi arabcha yorug'lik, yog'du degan ma'nolarni bildirib, termin sifatida astronomiyada yorug'lik manbaidan taralgan, ingichka tola ko'rinishida tasavvur etiladigan ziyo, yog'du; geometriyada to'g'ri chiziqlarning yarmi; fizikada musbat yoki manfiy zarralar, elektromagnit tebranishlar oqimi; tibbiyotda kasallik nomini anglatadi.

Yerning tabiiy yo'ldoshi bo'lgan, Yerdan tashqaridagi inson qadami yetgan yagona astronomik obyekt bo'lmish Oy nomi Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida oy, moh, mahtob, qamar shakllarida uchraydi:

Chun ko'kni xusufzod qilding,

Oyning kumushin savod qilding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2-jildida "oy" so'ziga "sayyora" deb ta'rif berilgan. [1983:510]

Shuningdek, siym so'zi nurga, chaqmoqlarning nuri, yaltirashga nisbatan ishlatilgan:

Oy siymini aylading zarafshon,

Tunning shabasini gavharafshon. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:6]

Moh termini ham Oy termini o'rnida qo'llanilgan:

Bog'ing ikki vardi – mehr ila moh,

Ne bog'-u ne vard, Alloh-Alloh! [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:10]

"Moh" so'zi forscha "oy" degan ma'noni bildirib, hozirgi kunda faqat badiiy adabiyotda moh, mohi tobon shakllarida qo'llaniladi. Moh so'zi oy ma'nosida, mohi tobon so'zi esa ravshan nur sochuvchi oy (go'zallarning sifati) [1983:621] ma'nosida ishlatiladi. Misollar: Ko'kda moh kezar asta. (E.Vohidov)

Sabo, arzimni yetkur, mohi tobon bir kelib ketsun. (Hamza)

Mahtob termini esa oydin, porlab turgan, to'lin oy [1983:295]ga nisbatan qo'llanilgan bo'lib, hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atida keltirilmagan.

Bayt:

Gohiki, kasofat etti mahtob,

Mehr oltunin aylading siyahtob. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]



Shu o'rinda yuqoridagi baytda qo'llanilgan kasofat etti birikmasiga e'tibor beraylik. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2-jildida kasofat so'ziga "xiralik, tutilish" deb ta'rif berilgan. Demak, Alisher Navoiy Oy yoki Quyosh tutilishi hodisasiga nisbatan kasofat etti terminini qo'llagan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida mazkur so'z mutlaqo boshqa ma'noda ishlatiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, yomon oqibatga olib boradigan, baxtsizlik (ziyon, zahmat) keltiradigan; yomon oqibat ma'nolarida qo'llanilishi aytilgan. [1983:329]

Navoiy oy, kunni tutilish sababchisi ma'nosida xusufzod terminini qo'llaydi:

Chun ko'kni xusufzod qilding,

Oyning kumushin savod qilding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Baytning ma'nosi: Ko'kni osmon jismlarining tutilishi sababchisi qilding, kumushday oyni shu bois qoraytirding.

Shuningdek, oy nomi o'rnida arabcha qamar termini ham ishlatilgan:

Xotam dema oni, mushki tar de,

Yo'q mushkki, munxasif qamar de. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:17]

Qamar so'ziga Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 4-jildida "oy, sayyora" deb ta'rif berilgan. [1983:28] O'zbek tilining izohli lug'atida ham bu so'z oy ma'nosida badiiy adabiyotda qo'llanilishi ko'rsatilgan [A.Madvaliyev: 233].

Yuqoridagi baytda qamar so'zi bilan kelgan munxasif so'zi oy//quyoshga nisbatan tutilgan, to'silgan degan ma'noda qo'llanilgan [1983:357].

Baytning ma'nosi: Uni uzuk-muhr dema, balki nam mushk degin. Yo'q, mushk ham emas, tutilgan oy degin [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:5].

Yer atrofini o'rab olgan olam fazosi – astronomik jismlar makoni hisoblanadigan Osmon (fors.ko'k, samo, falak) nomi dostonida osmon, ko'k, gardun, charx, sipehr, aflok (ko'plikda), toram kabi shakllarda uchraydi.

Rasvoliq o'tin jahong'a sochib,

Uchqunlarin osmong'a sochib. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:12]

Chun ko'kni xusufzod qilding,

Oyning kumushin savod qilding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Ko'k so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham osmon ma'nosida mavjud: Enkayganga enkaygin, boshing yerga tekkuncha, Kekkayganga kekkaygin, boshing ko'kka yetguncha. (Maqol)

Gardun (fors. osmon) so'ziga ham Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1-jildida osmon, falak deb ta'rif berilgan [1983:396]:

Gardunni sen aylading sabuksang,

Davronni sen aylading kuhaklang. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:8]

Baytning ma'nosi: Falak toshini yengil qilding, biroq davronni vazmin va sustkash qilib yaratding. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:5]

Devonalig'im, nechukki, majnun,

Sargashtalig'im, nechukki, gardun. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:12]



Baytning ma'nosi: Devonalig'im har qanday telba Majnundan ziyoda bo'lib, behalovat gardun kabi sarson-u sargardonman. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:8]

Gardun so'zining ma'nosi hozirgi o'zbek tili izohli lug'atida ham osmon, osmon gumbazi deb berilgan. [1983:488] Bu so'z hozirda badiiy adabiyotda, xususan, tarixiy asarlarda ko'proq qo'llaniladi: Yiqil ustimga, ey gardun, yiqil tez! Yiqil, boshimni yanch! Gavdamni bos, ez! (Uyg'un va I.Sulton, Alisher Navoiy)

Charx so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3-jildida osmon, falak ma'nosini ham anglatishi berilgan [1983:452]. Dostonda bir nechta o'rinda osmon ma'nosida bu so'zdan unumli foydalanilgan. Masalan, quyidagi baytga e'tibor beraylik:

Yer uzra kelib jahondin ortuq,

Charx uzra ekanda ondin ortuq. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:17]

Baytning ma'nosi: zamin ustida jumla jahondan, samoga yuksalganda esa osmondan ham ziyoda bo'ldi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:11].

O'zbek tilining izohli lug'atida charx so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "g'ildirak; doira, aylana; chig'ir" ma'nolarini anglatishi yozilgan. Charx so'zi o'z ma'nosida qo'llanilganda quyidagi kabi ma'nolarni anglatadi:

1. Ip yigiradigan dukli qo'l asbobi.
2. Har xil asboblarning, qurilmalarning aylanadigan qismi, parragi.
3. Kesuvchi asboblarning tig'ini o'tkirlaydigan, qayraydigan asbob.

Ko'chma ma'noda qo'llanilganda poetikada falak, dunyo ma'nolarida ishlatiladi: bu – charxning faqat bir-bir aylanishi, Hamal quyoshi ham taxtiga mindi. (A.Isroilov) [A.Madvaliyev: 462].

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3-jildida sipehr so'zi ham osmon ma'nosida qo'llanishi berilgan [1983:84].

Gar bo'lsa sipehr-u arz bir-bir,

Chun sendin erur senga ne tag'yir? [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:8]

Baytning ma'nosi: Basharti, zamin-u samo bo'lak-bo'lak bo'lib ketsa ham, o'zing yaratganing bois senga zarracha zarar yetmaydi. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:5]

Sipehr so'zidan hozir foydalanilmaydi. Bu so'zning ma'nosi o'zbek tilining izohli lug'atida ham keltirilmagan.

Asarda arabcha falak (ar. osmon; osmon gumbazi) so'zi bilan bir qatorda shu so'zning ko'pligi – aflok so'zi ham qo'llanilgan:

Kahdud falakka yetkurub bosh,

Aflok ko'ziga kelturub yosh. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:84]

Yana bir misol:

Aflokka sen shitob berding,

Anjum'a bu nur-u tob berding. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:6]



Baytning ma'nosi: Falakni charx urib aylanadigan qilding, yulduzlarga esa nur hamda harorat berding. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:4]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 1-jildida aflok so'ziga falaklar, osmonlar, osmon qavatlari deb ta'rif berilgan bo'lsa [1983:139], hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atida bu so'z berilmagan. Aflok so'zi bugungi kunda iste'molda mavjud emas.

Kim, zoti qoshida yetti toram,

Toram dema, balki Arshi a'zam. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:17]

Yuqoridagi baytda qo'llanilgan toram so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 3-jildida "gumbazli imorat; gumbaz, qubba; ko'k, osmon" deb izohlangan. [1983:245] Demak, bu so'z ham ba'zi o'rinlarda osmon so'zi bilan sinonim holda qo'llanilgan. Yuqoridagi baytning ma'nosi: Uning zoti qarshisida yetti qavat osmon, hatto Arshi a'lo ham me'roj kechasi taslim bo'ldi. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:11]

Toram so'zi bugungi kunda foydalanilmaydi.

Bu so'zlarning orasida faqat osmon so'zi bugungi kunda termin sifatida astronomiyada qo'llaniladi. Boshqa ma'nodosh so'zlari esa ayrimlari badiiy adabiyotda saqlangan bo'lsa (ko'k, gardun, falak, charx), boshqasi iste'moldan chiqib ketgan (sipehr, aflok, toram).

Shuningdek, Navoiy bir necha osmon jismlari bo'lmish sayyoralarni ham sanab o'tadi: Tiyr (Merkuriy sayyorasi) va Nohid (Zuhra yulduzi)ni ham sanab o'tadi:

Jaybi aro tugma Tiyr-u Nohid,

Egnida tirozi Oy-u Xurshid. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:7]

Baytning ma'nosi: Falak libosidagi tugmalar Tiyr(Merkuriy sayyorasi) va Nohid (Zuhra yulduzi) bo'lsa, egnidagi shoyi hoshiyalari Oy va Quyoshdir. [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:5]

Munshiy ko'rubon xati savodin,

Kayvon yuziga sohib midodin. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:22]

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati 2-jildida Munshiy Atorid (Merkuriy) sayyorasining qadimgi nomi ekanligi aytilgan. [1983:358] O'zbek tilining izohli lug'atida esa Munshiy so'zining tarixan "Saroyda yozuv ishlarini olib boradigan kotib" ma'nosigina keltirilgan bo'lsa [A.Madvaliyev: 642], Atorid so'zi lug'atda arabcha Merkuriy sayyorasining nomi ekanligi ko'rsatilgan [A.Madvaliyev: 115].

Kayvon (fors.) esa Zuhal, ya'ni Saturn planetasining qadimgi nomi [II jild, 1983:91]. O'zbek tilining izohli lug'atida ham Kayvon Saturn sayyorasining forsha nomi ekani keltirilgan [A.Madvaliyev:293].

Demak, yuqoridagi baytning ma'nosi: Atorid (Merkuriy, qadimgi miqlarda Merkuriy yozuvchilarning homiysi hisoblangan) uning yanoqlaridagi miyiqqlarning qoraligini ko'rib, o'z siyohini Kayvon yulduziga sohib yubordi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15].

Zuhra yo'lida tuzub navo zer,



Mutriblardek bo'lib miyongir. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:22]

Zuhra yulduzi nomi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida alohida izohlanmagan. Faqat zuhravash (Zuhra kabi; chiroyli, porloq); zuhrajabin (Zuhra yulduzi kabi charaqlab turgan chiroyli yuz) so'zlar berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida esa Zuhra so'zi arabcha bo'lib, Quyosh sistemasidagi katta planetalardan biri – Veneraning arabcha nomi ekanligi aytilgan [A.Madvaliyev:166].

Yuqoridagi baytning ma'nosi: Zuhra esa uning yo'lida pastki pardada soz chalib, sozandalardek musiqiy kecha tashkil qildi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15].

Qadimgi Mirrix yulduzi nomi dostonida Bahrom nomi bilan keladi:

Bahrom ko'rub biyik janobin,

Tashlab qilichin, o'pub rikobin. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:23]

Baytning ma'nosi: Mirrix uning martabasini ko'rib, qo'lidagi qilichini tashlab, otining uzangisini tavof qildi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15].

Bahrom so'zining izohi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida ham, hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atida ham berilmagan. Mirrix so'zining esa o'zbek tilining izohli lug'atida arabcha so'z ekanligi va Mars sayyorasining qadimgi nomi ekanligi aytilgan. Qadimda munajjimlar bu sayyorani urush va xunrezliklar sababchisi deb hisoblaganlar [A.Madvaliyev:600].

Birjisqa chun yetib rikobi,

Ish anga saodat iktisobi. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:23]

Ma'nosi: Uning uzangisi Birjisga yetib, bu yulduzga ham baxt-u saodat yor bo'ldi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15].

Birjis – Mushtariy (Yupiter) [I jild, 1983:296].

Ma'lumki, Yupiter Quyosh sistemasidagi eng katta, Quyoshdan uzoqligi bo'yicha beshinchi sayyora. Yana bir nomi – Mushtariy. O'zbek tilining izohli lug'atida Birjis so'zi berilmagan, ammo Mushtariy arabcha so'z bo'lib, Yupiter sayyorasining eski nomi ekanligi aytilgan [A.Madvaliyev:659].

Soyislig'ig'a Zuhal urub fol,

Gazdasta bila qo'lida g'arbol. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:23]

Baytning ma'nosi: zuhal esa bu suvoriyga sayislikka chog'lanib, qo'liga qamchi va g'alvirni oldi [A.Navoiy "Layli va Majnun"(nasriy tabdil) M.Abdulxayr, 2021:15].

Zuhal so'zi Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida alohida izohlanmagan. Faqat zuhalvash (Zuhalga o'xshash); zuhalrang (yulduz tusli; chiroyli) so'zlari berilgan.[I jild, 1983:654] O'zbek tilining izohli lug'atida esa Zuhal so'zi arabcha bo'lib, Quyosh sistemasidagi katta sayyoralardan biri – Saturnning arabcha nomi ekanligi aytilgan [A.Madvaliyev:166].

Savr -u Hamal aylabon fig'onlar,

Qurboni aning qilurg'a jonlar. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:23]



Savr – ho'kiz; o'n ikki burjning ikkinchisi (Hamal); aprel oyiga to'g'ri keladi [III jild, 1983:21] O'zbek tilining izohli lug'atida ham Savr (ar. buqa, ho'kiz) – o'n ikki burjning biri, Hamal va Javzo burjlari burjlari orasida joylashgani aytilgan [A.Madvaliyev:417].

Hamal – Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atida quyosh yili hisobida birinchi oy nomi (mart) [IV jild, 1983:147] deb berilgan bo'lsa, o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izohlangan::

Hamal (ar.qo'y, qo'zichoq) 1. O'n ikki burjning biri; Hut va Savr burjlarining orasida joylashgan.2. Shamsiya yil hisobi bo'yicha yilning birinchi oyi: 22-martdan 21-aprelgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi [A.Madvaliyev:497].

Navoiy yuqoridagi baytda Savr va Hamal so'zlarini burj nomlari sifatida ishlatgani ko'rinib turibdi.

Javzo ko'zi to'rt o'lub boqardin,

Topib Saraton ham ul nazardin. [A.Navoiy "Layli va Majnun", 2020:23]

Alisher Navoiy asarlari izohli lug'atining I jildida Javzoning astronomiyada o'n ikki burjdan birining nomi ekanligi berilgan [1983:550]. O'zbek tilining izohli lug'atida ham arabcha bu so'z o'n ikki burjdan birining nomi ekanligi, Saraton va Savr burjlari o'rtasida joylashgani aytilgan [A.Madvaliyev:61].

Saraton so'ziga Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'atining III jildida "yoz faslining birinchi oyi, iyul", deb izoh berilgan bo'lsa, o'zbek tilining izohli lug'atida "Saraton (ar.qisqichbaqa) o'n ikki burjning biri, Javzo va Asad burjlari o'rtasida joylashgan", deb ta'rif berilgan.

Ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy buyuk so'z ijodkori, davlat arbobi bo'lish bilan birga astronomiya ilmining ham yetuk bilimdoni bo'lgan. Navoiy asarlarida Navoiyning boshqa sohalarda ham yetarlicha bilimga ega bo'lganligi aks etgan. Shunday qilib, o'rganilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Navoiy asarlarida turli sohalarga doir terminlar qo'llanilgan bo'lib, ularni aniqlash, tahlil qilish, izohlash Navoiy mahoratini tushunish uchun ham, tilshunoslikning terminologiyasi sohasi uchun ham katta yutuq bo'ladi.

2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida astronomiya ilmiga doir ko'plab terminlarni qo'llaydi. Bu terminlarning ayrimlari hozirgi kunda ham qo'llanilsa, ba'zilari butunlay iste'moldan chiqib, tarixiy so'zga aylangan, yana bir qismi esa o'z o'rnini boshqa bir so'zga bo'shatib bergan.

3. "Layli va Majnun" dostonida qo'llanilgan astronomik terminlarning aksariyati ot so'z turkumiga oid.

4. Doston matnida qo'llanilgan astronomik terminlarning bir qismi sof o'zbek tiliga xos, kattaroq qismi esa arab va fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlardir.

5. Badiiy asarda qo'llanilgan terminlarni o'rganish, tadqiq qilish, nafaqat, ijodkorning qomusiy bilimlarini aks ettiradi, balki, terminologiya sohasi tarixi va taraqqiyoti uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



Xullas, Alisher Navoiy asarlari cheksiz ummon kabi xazinalarga boy bo'lib, o'quvchini yana o'qishga, izlanishga chorlayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun". -Toshkent, 2020.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. – Toshkent, 1993.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 1983.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент, 1983.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 1983.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент, 1983.
8. D.Yusupova "Layli va Majnun" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. kh-davron.uz
9. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. – T.:2019. - B.117.
10. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi.-Toshkent, 2019.
11. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. 1996.
12. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent: Fan, 2002.
13. Jovliyeva J. Terminologiya masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili. //Science and education// – T.:2020. -B.451.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent, 2007.
15. Rajabova B. Navoiy ijodida tarixiy-huquqiy atamalar. Ziyouz.uz. 2016.